



**SOHAVIY TERMINOSISTEMADA OQOVA SUV VA U BILAN BOG'LIQ  
TERMINLARNING O'RGANILISHI XUSUSIDA**

Xurramova Dilobar Muxtorovna

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ham mavzuiy guruhlarga ajratish, har bir mavzuiy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish oqova suv semasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Zero, har bir tildagi terminlarni funksional aspektda o'rganishda ularni mavzuiy guruhlarga ajratib tahlil qilish terminlarning semantik tabiatini, funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** termin, oqova suv, biofiltr, tozalash tizimi terminlari, sohaviy terminlar.

Fan-texnika sohasida ilmiy tushunchalarni nomlash va bayon etishda terminlar alohida o'rinn tutadi, hech bir fan sohasini terminlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir fan sohasi o'z terminologik tizimiga ega, ular bilan ish ko'radi. Terminlarning qo'llanishi umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda ma'lum nazorat ostida bo'ladi. Shuni ham qayd etish lozimki, tilning terminologik tizimi birliklari qayd etilgan umumiyl xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, sohaviy xoslanganligi bilan ham xarakterlanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiy-siyosiy, tabiiy, aniq fanlar va texnik-texnologik sohalarda qo'llanuvchi ko'plab terminlar alohida belgilari bilan ajralib turadi. Buni oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida qo'llanuvchi terminlar tizimida ham kuzatamiz. O'rganilayotgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasini asosan, o'zga tildan o'zlashgan va birikmali terminlar tashkil qiladi.

Oqova suv va uni tozalash terminlari tizimida – "oqova" mazmuniy maydoniga birlashuvchi terminlar bu maydonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular o'zbek tilining maxsus sohasi – Oqova suv va uni tozalashga oid leksik tizim tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi.

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining barchasi uchun "oqova" integral semasi birlashtiruvchi unsur vazifasini o'taydi. Masalan, quyidagi misollarda terminlarning barchasi uchun u denotativ sema arxisema maqomida:

**Biofiltr** (biologik filtr) oqova suvni sekinlik bilan sizib o'tkazish usulida tozalaydigan biologik tozalash qurilmasi. Qurilmada joylashtirilgan mikrobiologik pardal orqali oqova suv sizib o'tadi yoki ayrim yuksak suvo'tlarining (qamish, lux, azolla) ildizi orqali oqova suv tarkibidagi iflos moddalar shimib olinib, tozalanadi. Biofiltr sifatida donador qum, toshqol, keramzit va boshqa sirti g'ovak qattiq moddalardan foydalaniladi. Ba'zi manbalarda bu termin biotenk, bioreaktor ko'rinishida ham ifodalanadi.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

Shunisi xarakterlik, oqova suv va uni tozalash terminlari bevosita shu soha tizimiga xos bo‘lishi ham, boshqa tizimdan oqova suv va uni tozalash tizimi leksemalari tizimiga o‘zlashgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, quyidagi terminlar faqat oqova suv va uni tozalash terminlari tizimida ishlataladi: *oqizish inshootlari, tashlandiq moddalar, kanalizatsiya hovuzlari, tabiiy ifloslanish, sun’iy ifloslanish, oqova suvni mexanik tozalash, oqova suvni kamyoviy tozalash, oqova suvni biokamyoviy tozalash, oqova suvning ifloslanishi, oqova suvning hosil bo‘lishi, biofiltr, oqova suvni tindirish, talab etilgan tozalash darajasi, oqova suvni tindirish, tiniqqan suv, nordon oqova suv, ozonlash, oqova suvning sifat darajasi, oqova suv xossalari, chiqindi suv, oqova suvning suyulish darajasi, oqova suv tarkibi, suvni o‘z-o‘zini tozalash jarayoni, suvni maxsus tozalash inshootlari, oqova suvning miqdori, oqova suv sarfi, sanoat oqova suvi, ishqorli oqova suv, nasos, faol loyqa kabilar.*

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminosistemasida shunday terminlar ham borki, ular boshqa sohalarda ham keng qo‘llanadi, lekin oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida “Oqova suvning hosil bo‘lishi va tozalashga xos” umumiy birlashtiruvchi semasi bilan ajralib turadi. Bunday terminlar sirasiga oqova suv hamda uni tozalash jarayonida uchraydigan quyidagi terminlarni kiritish mumkin: *kamyoviy reagentlar, ohak, ohaktosh, og‘ir metallar, suyuq go‘ng, cho‘kma, organik moddalar, neft moddalar, osma moddalar, kurak, lotok, ariqcha, mineral kislota, nasos, adsorbsiya, suvo‘t, qamish, quvur, ko‘pik.*

Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida “Oqova suvga xos” terminologik semasiga ega bo‘lgan hamda maxsus terminologik lug‘atlarda ushbu semasiga urg‘u berilgan holda tavsiflanadigan, izohlanadigan o‘zbek tilining umumiste’mol leksikasida tegishli bo‘lgan, so‘zlar ham talay. Bunday terminlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: *oqova, cho‘kma, cho‘kindi, ohak, loyqa, yig‘gich, purkagich, maydalagich, chiqindi, tindirish, iviq, sizot, zararsizlantirish, maydon, iflos, kir, hovuz, panjara, xaskash* kabilar. Oqova suv va uni tozalash tizimi sohasida qo‘llanadigan ayrim terminlarni ko‘p hollarda boshqa sohaviy leksika, shuningdek, umumiste’mol birliklardan qat’iy chegaralash qiyin. Bu holat mazkur tizimda qo‘llanadigan umumiste’mol va boshqa sohaviy terminlarni oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari sifatida talqin qilish va leksikografik tavsifini berishda chuqur lingvistik bilimga egalik bilan bir qatorda, oqova suv va uni tozalash tizimi sohasi mutaxassis ham bo‘lishi lozimligini taqozo qiladi.

*Oqova* leksemasi soha terminlari tizimida o‘zining keng qamrovli va ko‘p qo‘llanuvchan ekanligi bilan farqlanadi. Oqova leksemasi mazkur tizimda ularning ma’nolarini umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi dominanta leksema sifatida namoyon bo‘ladi va uning semantik strukturasida ham ushbu holat ro‘y-rost ko‘rinadi:



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

**Oqova suv** – bu maishiy maqsadda, ishlab chiqarish va qishloq xo’jaligida qo’llanilgan, atmosfera (yog ‘in) suvlari hamda ma’lum bir ifloslangan hududdan o’tib hosil bo’lgan suvlardir.

Termin-leksemaning bu ma’nosi – oqova polisemantik leksemasining ikkinchi ma’nosidan o’sib chiqqan hosila semema, ya’ni terminologik semema hisoblanadi. Terminologik ma’no denotatning oqova suv va uni tozalash sohasida bajaradigan vazifasiga urg‘u berish asosida shakllantirilgan va umumiste’mol oqova leksemasidagi ikkinchi semema ushbu semantik strukturada oddiy bir sema darajasiga tushgan, semema sema darajasida toraygan.

Shunday ekan, oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari til leksik sistemasida o’ziga xos o’ringa ega. Lisoniy ongimizda oqova tushunchasi kundalik hayotimizda, sanoat, ishlab chiqarishda foydalanilgan chiqit suv hamda uni tozalash jarayoni va qayta foydalanish majmuidan iborat tizim sifatida gavdalanadi. Oqova hosil bo’lish, tozalash va qayta foydalanish tushunchalari bilan, hosil bo’lish, tozalash hamda qayta foydalanish esa oqova tushunchasi bilan dialektik yaxlitlikda ifodalanadi.

Tadqiqotimiz obyekti bo’lgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ham mavzuiy guruhlarga ajratish, har bir mavzuiy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish oqova suv semasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o’rganishga imkon yaratadi. Zero, har bir tildagi terminlarni funksional aspektida o’rganishda ularni mavzuiy guruhlarga ajratib tahlil qilish terminlarning semantik tabiatni, funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E. Hozirgi o’zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: 1985,121-bet.
2. Djalilova A., Xamidov A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash. Toshkent: 2012, 6-bet.
3. Doniyorov R. O’zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan, 1977, 45-bet.
4. Narxodjayeva X. Jarayon anglatuvchi terminlarning o’zbek tilida tutgan o’rni. – Toshkent:Fan, 2013, 24-bet.
5. Qosimov N. O’zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari (So’z o’zlashtirish va affiksatsiya masalalari). – Toshkent: Fan, 1985, 47-bet.
6. O’zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008, 220-bet.



# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ



VOLUME:2 ISSUE:3

7. Yuldasheva N.E. On methods of research of uzbek language syntax// Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue). ISSN 2319-4979. 2021. № 26. - P. 3913-3918.
8. Yuldasheva, N., & Ergasheva, R. (2020). Research Of Terminology And Aviation Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: August, 25, 312-317.
9. ЮЛДОШЕВА, Н. (2022). Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи акцентуатив омиллар. О „ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 1(3).
- 10.Юлдошева, Н. Э., & Мавланова, Н. Т. (2023). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(2), 556-564.
- 11.Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultutive structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
- 12.Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMUY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
- 13.Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
- 14.Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
- 15.Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.